




E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

<b>Жабборов Э.</b>	Маҳмудхўжа Бехбудийнинг “сарт” сўзи ҳақидаги қарашлари	126
<b>Kaharova I.S.</b>	Morphological features of imitative words in the Uzbek and English languages	130
<b>LITERARY CRITICISM</b>		
<b>Kurbanova Ch.B.</b>	Abdulla Oripov she'riyatida aruz vazni va uning ahamiyati	137
<b>Nasridinova S.U.</b>	O.Henri hikoyalarida yumorning badiiy vazifalari	143
<b>Obidova N.O.</b>	Kortasar hikoyalarida psixologik tahlil	148
<b>Халимова Ф.Р.</b>	Лингвофонетик воситаларнинг прагматик хусусияти (инглиз шеърий матни мисолида)	152
<b>Zaripova D.B.</b>	Huvaydo lirikasida payg'ambarlar obrazi	156
<b>Ахмедова Ш.Н.</b>	Академик Наим Каримов услубига хос муҳим қирралар (Ойбек ижоди мисолида)	160
<b>Бокарева М.А.</b>	Пути развития русского реализма рубежа XX-XXI веков: от соцреализма до экзистенциального постреализма	166
<b>Джалилова З.Б.</b>	Инглиз шеъриятида инсон образининг гуллар орқали тасвирланиши	173
<b>Каримова Ш.К.</b>	Замонавий ўзбек шеъриятида поэтик синтаксис унсурларининг уйғун келиши	182
<b>Fayziyeva M.Ch.</b>	Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat g'oyalari talqini	189
<b>Қодирова Ф.Ш.</b>	Риторика санъатшунослик дискурси контекстида	194
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Амонова З.Қ.</b>	Изҳори ҳамд	198
<b>PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES</b>		
<b>Давидов У.Х.</b>	Миллий-маънавий хавфсизлик ва миллий ўзликни англашнинг ўзига хос сиёсий-мафкуравий хусусиятлари ва эволюцияси	201
<b>Muminkhujaev A.M.</b>	The formation and development of liberal worldview on ideological threats in the context of globalization	207
<b>PEDAGOGICS</b>		
<b>Ҳакимова Н.С.</b>	Бошланғич синф тарбия дарсларида ўқувчиларда ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларини шакллантириш тамойиллари	212

UDC: 801.83

### AMERIKA VA O'ZBEK BADIY DISKURSIDA SADOQAT VA XIYONAT G'OYALARI TALQINI

*Fayziyeva Malikajon Choshovna*

*Buxoro davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti*

*Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi,*

*e-mail: m.ch.fayziyeva@buxdu.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat g'oyalari talqiniga bag'ishlangan bo'lib, bunda har ikkala madaniyat sadoqat va xiyonat g'oyalari motivlari hamda ularning turlari tahlil qilingan. O'sib kelayotgan yosh kelajak avlodni ham insonparvar, vatanni ulug'lash, uni asrash, ardoqlash, himoya qilishga undaguvchi vatanparvar shaxs sifatida kamol topishida, ota-ona oldidagi farzandlik burchining har vaqt, hamma yerda sharaf bilan bajarish, farzand katta yo kichik yoshda bo'lishidan qat'iy nazar ota-onasining hurmatini, xizmatini qilish, ular bergan oq sutni halolash aytib o'tilgan. Bundan tashqari, oilasiga, ota-onasiga, tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan makon ya'ni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hozirgi davr talabi ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** personaj, motiv, sadoqat, xiyonat, ishonch, tuxmat, sodiqlik, xoinlik, zaif, ma'nan kuchli.

**Аннотация:** Данная статья посвящена интерпретации идей верности и предательства в американском и узбекском художественном дискурсе, анализу мотивов и типов представлений о верности и предательстве в обеих культурах. Напомним, что подрастающая молодежь будущего поколения росла патриотом, который призывает их быть гуманными, прославлять, защищать, чтить и оберегать свою Родину, выполнять свой сыновний долг перед родителями во все времена и везде, независимо от того, стар ребенок или млад. Требование настоящего времени состоит в том, чтобы уважать и служить своим родителям, чтить белое молоко, которое они дали, и воспитывать их в духе верности своей семье, родителям, месту, где они родились и выросли, Родина, где пролилась их пупочная кровь.

**Ключевые слова:** персонаж, мотив, верность, предательство, вера, [клевета](#), преданность, неверность, духовно слабый, духовно сильный.

**Abstract:** This article is devoted to the interpretation of the ideas of loyalty and betrayal in American and Uzbek art discourse, analyzing the motives and types of ideas of loyalty and betrayal in both cultures. It has been stated that it is important for the growing youth of the future generation to grow up as a patriot who encourages them to be humane, glorify, protect their honor, and protect their homeland, to honor their duty toward their parents at all times and everywhere, regardless of whether the child is old or young. The demands of the present time as respecting and serving one's parents, and raising them in the spirit of loyalty to their family, parents, the place where they were born and grew up, the motherland where their navel blood was shed were highlighted in the paper.

**Key words:** character, motive, loyalty, betrayal, belief, slander, loyalty, betrayal, weak, spiritually strong.

Halollik va sadoqat arzon odamlardan kutilmasligi kerak bo'lgan qimmatbaho sovg'alardir.  
(B. Shou)

**Kirish.** Inson hayotida badiiy adabiyot muhim o'ringa ega ekanligi hech kim inkor qila olmaydigan haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari adabiyot va adabiyotshunoslikka bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi. [2] Shunday ekan, badiiy asarlarni o'qish orqali Vatanga, oilada ota-onaga, aka-ukaga, sevimli insonga, burchga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi. Har bir insonda ozi xos sodiqlik tuyg'usi mujassam bo'lib, u

yillar davomida insonning hayot kechinmalari orqali psixologiyasining o'zgarishi natijasida shakllanib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Amerika va o'zbek badiiy diskursi ko'plab ilm ahli tomonidan tahlil qilingan. Asarlardagi turli xil mavzular ustida ishlash, ularni tahlil qilish, chog'ishtirish yo'llari orqali o'rganish Mahmudov M., Vinogradov V.N., Ayvazova S. G., Parsons T., Kristensen G., Bach Yorgen, Kollontay A. M., Camden Hastings, [Shreya Rastogi](#) and [Srirupa Chatterjee](#), Susan Elizabeth Sweeney, [Amy Tikkanen](#), [Rick Gekoski](#), Andrew Mangum, Kate Tutte, [Michiko Kakutani](#), Dorothy Faye Sala Brock, Heller Mcalpin, [Leo Robson](#) ilmiy ishlarida uchraydi. Ushbu ilmiy ishlarda Amerika va o'zbek madaniyatlari umumiy tahlil qilinib, ulardagi gender a'zolarining o'ziga xos rollari, jamiyatdagi ahamiyati, yumorning mohirlik bilan ifodalanishi ko'rib chiqilgan. Sadoqatli bo'lish har bir insonning burchi ekan, ushbu burchni amalga oshirish, har sohada inson o'zining sodiqligini isbotlay olishi ham juda muhimdir. Xiyonat, xiyonatga asoslangan harakatlar ham hayotimizning ajralmas qismidir. Xiyonatning ham sadoqat kabi Vatanga, burchga, oilaga, sevimli insonga xiyonat kabi turlari mavjud. Said Ahmadning asarlaridan biri "Ufq" romanida xiyonat tushunchasi asar qahramoni Tursunboy orqali yaqqol bayon etilgan. Ushbu qahramon urushdan qiyinchiliklarga chidolmay qochib, Vatanga, burchiga xoinligi ortidan ota-onasiga butun xalqiga xiyonat qilgan. Hattoki onasini so'nggi tuproqqa qo'yishga yaramay farzand nomiga dog' tushurgan. Ushbu maqola orqali ikki xil madaniyatga xos yozuvchilar asarlaridagi bunday tuyg'u va illatlarni yoritish hamda taqqoslash orqali, insonlarni hushyorlikka chorlash, ularning sodiqlik tuyg'ularini oshirish va xiyonat kabi bedavo illatdan uzoq turishlariga da'vat etiladi. Ammo, Amerika va o'zbek adabiyotida sadoqat va xiyonat tushunchalari hech kim tomonidan qiyosiy tadqiq qilinmagan. Ko'rinadiki, Amerika va o'zbek badiiy diskursida voqelantirilgan "sadoqat va xiyonat" g'oyalarining lingvomadaniy xususiyatlari o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Modernizm hamda post modernizm davrlarida Amerika va o'zbek diskursida voqelantirilgan "sadoqat va xiyonat" tasviri, ularning mushtarakligi hamda farqli tomonlarini qiyosiy o'rganilishi, lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilinishi hozirgi davrda ushbu madaniyatlarning tuban o'rganilishi ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning debochasidir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi:

- Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat turlarini aniqlash;
- Amerika va o'zbek badiiy asarlarida sadoqat va xiyonat yoritilish usullarini ko'rib chiqish;
- Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat motivlarini sharhlash;
- Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat g'oyalarining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlilini amalga oshirish.

Zotan, Anna Taylarning "Nafas olish darslari", "Tansoqchi", "Tasodifiy turist", "Yillar norvoni", "Gillian Anderson", "Tong yana bir bor otganda"; Meri Elis Monroning "Sohildagi uy", "Vaqt bu daryo", "To'rt Fasl", "Yoz fasli shamoli", "Yoz fasli qizlari"; Teodor Drayzerning Baxtiqaro Kerri, Amerika fojiasi; Said Ahmadning "Ufq", "Jimjitlik", "Tortiq", "Er yurak", "Farg'ona hikoyalari", "Muhabbat", "Oftoboyim", "Bir o'pichning bahosi", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Qora ko'z Majnun"; Tohir Malikning "Shaytanat" kabi asarlari hamda ularning ijodi haqidagi ilmiy ishlar sadoqat va xiyonat tushunchalari o'zida yaqqol namoyon eta oladigan asarlar sirasidan joy olgan.


Olimlarning fikricha xiyonat qilishning eng yuqori darajasi bu o'z-o'ziga xiyonat qilish, o'z tamoyillari va e'tiqodlariga xiyonat qilish demakdir. Agar biror kishi bunday xiyonat qilsa, siz undan har qanday narsani kutishingiz mumkin: kuchli odamlar buzilib ketishi, aybdorlik hissi bilan kasal bo'lib qolishi va zaiflar nima qilganlarini hatto tushunmasliklari mumkin.

Odamlar ikki toifaga bo'linadi. Birinchi toifadagi odamlar har qanday vaziyatda ishonchli insonlar bo'lib o'lim yoqasida bo'lsa ham ular o'zlariga, yaqinlariga yoki mamlakatga xiyonat qilmaydilar. Ikkinchi toifadagi insonlar, eng kichik xavf ostida, har qanday odamni almashtirishga, tuhmat qilishga, shunchaki suvdan quruq chiqish uchun xiyonat qilishga tayyordirlar.


**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Turli xalq vakillari sadoqat va xiyonat kabi hayotning ajralmas xislat-u illatini o'z asarlarida turlicha tasvirlashgan. Xususan, Aleksandr Sergeyevich Pushkin o'zining "Kapitan qizi" asarida qahramonlarni hayotga tubdan qarama-qarshi holatlarga duch keltirgan:

- ✓ Petya Grinev – ma'nan kuchli, o'ziga va so'zlariga sodiq, qo'rqmas odam. U har qanday vaziyatda ham atrofdagilarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilishga tayyor, qaroqchilar etakchisi Pugachev bilan teng huquqli gaplashish dan qo'rqmaydi. O'lim azobida u o'z ishonchiga xiyonat qilmaydi, so'ziga va Vatanga sodiq qoladi; [4]

✓ Shvabrin esa aksincha, Mashaning sevgisiga erishish va uning baxtsiz hayotini saqlab qolish uchun hiyla-nayrang, shantaj va xiyonatni qo'llaydi [3].



**1-rasm. Anna Taylarning  
Nafas olish darslari kitobi**



**2-rasm. Anna Taylarning  
“Vaqt bu daryo” asari**

Shvabrinning taqdiri esa, barcha hiyla-nayranglariga qaramay, o'lim bilan yakun topadi. O'ziga va so'ziga sodiq bo'lgan odamgina ko'p narsaga erishishi va hayotda baxtli bo'lishi mumkin. Taqdir ertami-kechmi zaif va axloq qonunlariga xiyonat qilganlarni jazolaydi. Ayniqsa, odamlar o'zlarining his-tuyg'ulari va istaklaridan farqli o'laroq, ular ichida yillar davomida shakllangan e'tiqodlarga ergashganlarida, bu juda ta'sirli va qimmatlidir. O'ziga sodiqlik - boshqalarning hurmati va hayratining kafolati. Bu bizni butun vujudimizni tarbiyalaydi, eng kuchli insonga aylantiradi. Qolaversa, o'zini hurmat qiladigan insongina boshqalarning hurmatini qozona oladi. Ba'zan inson o'zining haqiqiy ichki tuyg'ularini darhol yuzaga chiqara olmaydi. U hayotga qarashini vaqt vaqti bilan o'zgartirib, uzoq vaqt davomida izlanishda bo'lishi mumkin.

Xiyonat har doim insonlar bilan birga ekanligi haqida hech kim bahslashmaydi. Avval ta'kidlab o'tilganidek, xiyonatning juda ko'p o'ziga xos turlari mavjud. O'z vatanida biror narsadan xafa bo'lgan insonlar oxir oqibat xiyonatga qo'l urib, xoin bo'lishadi. Masalan, Sparta Efialles Termopiladagi o'rtoqlariga achchiq ustida xiyonat qilgan; Yahudo Masihga, Brutus esa Sezarga xoinlik qilgan. Bundan tashqari, Mazepa Pyotr I ga xiyonat qilgan hamda ularning nomlari tarixda abadiy muhrlanib qolgan.

Biror kishiga yoki biron bir narsaga sodiq qolish muhim tanlovdir va har bir inson hayoti davomida qachondir ushbu sinovdan o'tishi kerak. Vatan uchun sodiq inson- vatanparvar, oilasiga sodiq inson-oilaparvar, do'stlari-yu yaqinlariga sodiq inson- mard, irodali ideal inson deya nomlansa maqsadga muvofiq boladi. Sadoqat nimaligini va uni qanday saqlashni juda oz insonlar bilishadi. Zero, biz o'zimizga, kuchli tomonlarimizga, sadoqat tushunchasiga bo'lgan ishonchni yo'qotmoqdamiz. Biz uning qanday ekanligi va qanday tuyg'ularni o'zida mujassam etishini unuta boshladik. Axir, sodiqlik yo'nalishida tanlov qilish uchun, uni saqlab qolish va hatto uni ko'paytirish uchun katta fidoyiliklar qilish kerak bo'ladi. Har bir muhim qarorni qabul qilishdan oldin, har doim bir necha marta o'ylab, tushunish va barcha ijobiy va salbiy tomonlarini taroziga tortish kerak. Insonlar hayotda juda sadoqatli va vafodor bo'la olishadi, lekin har doim ham buni yetarlicha namoyon qila olishmaydi, yoki nohaqlikka uchrab o'z ishonchlarini yo'qotishadi. Bir paytlar

## LITERARY CRITICISM


sadoqatni tanlagan bir inson xiyonatdan kuyib qoldi va endi boshqa hech kim sadoqatga loyiq emas deb hisoblaydi, shuning uchun boshqa insonlar ham azob chekishadi.

Insonlar ko'pincha, o'zlarining sodiq ekanliklarini, birovni qadrlashlarini va sevishlarini bildirishni, anglatishni xohlashadi. Ushbu holatni anglatishlari bilan bir qatorda, ular uchun sodiq ekanliklarini o'zlari anglashlari ham ikki karra yoqimli deb o'ylayman.


Sadoqat tuyg'ular, e'tiqodlarda barqarorlik deb ta'riflanadi. Ammo kamdan-kam inson so'zning ildizi - iymon ma'nosini eslay oladi. Ammo xiyonat - bu kimgadir yoki nimagadir sodiqlikni buzishdan boshqa narsa emas. Musulmon dinining axloq qoidalariga ko'ra, zino jiddiy gunoh bo'lib, xiyonatning og'ir ko'rinishi hisoblanadi. Yolg'on gapirish ham musulmonchilik axloq qoidalariga ziddir. Ammo aldash xristian dini asosida iymon sohasida bo'lishi shart emas. Zino, Vatanga xiyonat qilish, e'tiqodga xiyonat qilish kabi tushunchalarning barchasi xiyonat kontsepsiyasining navlaridir.

Har bir inson o'z oilasiga sodiq bo'lishi hamda qo'llab-quvvatlashi kerak. Ota-bobolarimiz ham xalq og'zaki ijodi na'munalarida har doim o'zbek oila doirasining mustahkamligini, uning ahamiyati va bo'linmasligini maqtaganlari bejiz emas.

Bundan tashqari, Vatanga bo'lgan muhabbat, unga sodiq qolish har bir insonning burchidir. Bizning bitta mamlakatimiz, uning she'r va qo'shiqlarida kuylangan ajoyib matallari, asarlarida purma'no hikoyasi mavjud. Bizning qahramonlarimiz mardlarcha, Vatanga sodiq bo'lgan holda uni ko'z qorachiqlaridek asraydilar, kelajak avlodlar dushman tig'i ostida tug'ilmasligi uchun dushmanning yuziga tik qarashdan hech qachon qo'rqmaydilar.



3-rasm. Said Ahmadning "Ufq" asari



4-rasm. Said Ahmadning "Qorako'z majnun" asari


So'zga, burchga, Vatanga, muhabbatga sodiqlik - bu his-tuyg'ularni insonga axloqiy ta'limot va yozuvlar orqali majburan singdirish yoki rivojlantirish mumkin emas, ular insonning o'zi tug'ilishi bilan birga qalb tubida tug'iladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari madaniyatidagi yana bir xiyonat turi haqida fikr yuritadigan bolsak, o'rta maktablar va kollejlarda imtihon paytida ko'chirish, har xil man qilingan materiallardan yashirin foydalanish – akademik halollikka xiyonat qilish hisoblanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, davlat o'rta maktab o'quvchilarining 58%i plagiatga yo'l qo'yishadi. Talabalarning 95% aldashning biron bir turini qo'llaganliklarini tan olishadi. Bunga testlar, uy vazifalarini nusxalash va qog'ozlar kiradi. Shunga qaramay, xususiy maktab o'quvchilarining atigi 50 foizi buni tan olishadi [5].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Amerika va o'zbek yozuvchilari tomonidan sadoqat va xiyonat g'oyalari atroflicha yoritilgan. Bunda, hattoki gender psixologiyasining badiiy diskursda sadoqat va xiyonat g'oyalari lingvomadaniy xususiyatlarining aks ettirilishiga ta'siri ham atroflicha o'rganilib, yosh avlodni sodiq bo'lish va xiyonat kabi yovuz illatga qarshi tura olishlari uchun yo'l yo'riq hamda tavsiyalar berib o'tilishi maqsadga muvofiq bolardi.

### ADABIYOTLAR:

1. Choshovna, F. M. (2022). *The notion of family loyalty in literary works. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 107-109.
2. <https://lex.uz/docs/-3171590>
3. <https://www.literaturus.ru/2015/09/shvabrin-kapitanskaja-dochka-obraz-harakteristika.html>
4. <https://www.literaturus.ru/2015/09/shvabrin-kapitanskaja-dochka-obraz-harakteristika.html>
5. <https://uz.upwiki.one/wiki/>
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/21st\\_century\\_in\\_literature](https://en.wikipedia.org/wiki/21st_century_in_literature)
7. <https://kitobxon.com/oz/kitob/ufq>
8. <https://www.thriftbooks.com/a/anne-tyler/198664>
9. <https://www.google.com/search?q=anne+tyler+books&tbn>
10. <https://www.google.com/search?q=said+ahmad+kitoblari&tbn>



**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara state university, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted  
28.12.2022 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.  
Published in the printing house  
"Sadriiddin Salim Buxoriy" LLC  
Address: Bukhara,  
M.Ikbol street, 11